



## Buxoro viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari  
va metama'lumotlari

### I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni **2 082,8** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **9,2** ming nafarni, vafot etganlar **2,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **7,1** ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **3** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **24** kishini, qayd etilgan nikohlar **2,9** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,6** mingtani tashkil etgan.

|                            |                |             |
|----------------------------|----------------|-------------|
| Doimiy aholi soni          | <b>2 082,8</b> | ming kishi  |
| Tug'ilganlar soni          | <b>9,2</b>     | ming kishi  |
| Vafot etganlar soni        | <b>2,1</b>     | ming kishi  |
| Xorijdan ko'chib kelganlar | <b>3</b>       | kishi       |
| Xorijga ko'chib ketganlar  | <b>24</b>      | kishi       |
| Nikohlar soni              | <b>2,9</b>     | ming birlik |
| Nikohdan ajralishlar soni  | <b>0,6</b>     | ming birlik |

## II. Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra **2 082,8** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,8** ming kishiga yoki **0,3** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **767,8** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,9%**), qishloq joylarda esa **1 315,0** ming kishi (**63,1%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 038,4** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 044,4** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni, ming kishi

|                        | 2024-yil       | 2025-yil       | O'sish sur'ati,<br>% da |
|------------------------|----------------|----------------|-------------------------|
| <b>Buxoro viloyati</b> | <b>2 050,6</b> | <b>2 082,8</b> | <b>101,6</b>            |
| Buxoro sh.             | 296,0          | 301,4          | 101,8                   |
| Kogon sh.              | 64,9           | 65,6           | 101,1                   |
| <i>viloyatlar:</i>     |                |                |                         |
| Olot                   | 104,6          | 106,1          | 101,4                   |
| Buxoro                 | 179,1          | 182,4          | 101,8                   |
| Vobkent                | 149,2          | 151,8          | 101,7                   |
| G'ijduvon              | 323,6          | 328,2          | 101,4                   |
| Kogon                  | 85,0           | 86,7           | 102,0                   |
| Qorako'l               | 172,3          | 174,7          | 101,4                   |
| Qorovulbozor           | 20,0           | 20,4           | 102,0                   |
| Peshku                 | 131,4          | 133,8          | 101,8                   |
| Romitan                | 151,7          | 153,8          | 101,4                   |
| Jondor                 | 186,1          | 189,3          | 101,7                   |
| Shofirkon              | 186,7          | 188,6          | 101,0                   |

Buxoro viloyatida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **51,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,8** kishiga ortgan (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **51,0** kishi).

### Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **9,2** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,0** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


**Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi**



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **9,2** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **4,7** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,1%**), qiz bolalar soni **4,5** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **97,0** ming kishini (**48,9%**), qishloq joylarida **101,1** ming kishini (**51,1%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **41,4** ming kishini, shundan erkaklar **22,8** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,0%**), ayollar **18,6** ming kishini (**48,9%**) va shahar joylarida **3,5** ming kishini (**38,0%**), qishloq joylarida **5,7** ming kishini (**62,0%**) tashkil qildi.

**Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi**




#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **2,9** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **0,6** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik**



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **2,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,2** ming birlikni (**41,4%**), qishloq joylarida **1,7** ming birlikni (**58,6%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **0,6** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,3** ming birlikni (**50,0%**), qishloq joylarida **0,3** ming birlikni (**50,0%**) tashkil qildi.

**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik**



## V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **2 458** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **2 453** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **5** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **3 784** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 760** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **24** kishini tashkil qildi.

### Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

|                        | Ko'chib kelganlar soni |              |          | Ko'chib ketganlar soni |              |           |
|------------------------|------------------------|--------------|----------|------------------------|--------------|-----------|
|                        | Jami                   | shundan:     |          | Jami                   | shundan:     |           |
|                        |                        | ichki        | tashqi   |                        | ichki        | tashqi    |
| <b>Buxoro viloyati</b> | <b>2 458</b>           | <b>2 453</b> | <b>5</b> | <b>3 784</b>           | <b>3 760</b> | <b>24</b> |
| Buxoro sh.             | 872                    | 869          | 3        | 801                    | 796          | 5         |
| Kogon sh.              | 151                    | 151          | 0        | 163                    | 163          | 0         |
| <i>viloyatlar:</i>     |                        |              |          |                        |              |           |
| Olot                   | 42                     | 42           | 0        | 128                    | 128          | 0         |
| Buxoro                 | 350                    | 350          | 0        | 314                    | 314          | 0         |
| Vobkent                | 117                    | 117          | 0        | 223                    | 223          | 0         |
| G'ijduvon              | 143                    | 143          | 0        | 707                    | 707          | 0         |
| Kogon                  | 212                    | 211          | 1        | 222                    | 222          | 0         |
| Qorako'l               | 92                     | 91           | 1        | 226                    | 226          | 0         |
| Qorovulbozor           | 122                    | 122          | 0        | 85                     | 70           | 15        |
| Peshku                 | 65                     | 65           | 0        | 103                    | 102          | 1         |
| Romitan                | 52                     | 52           | 0        | 178                    | 175          | 3         |
| Jondor                 | 82                     | 82           | 0        | 205                    | 205          | 0         |
| Shofirkon              | 158                    | 158          | 0        | 429                    | 429          | 0         |

### Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



## VI. Dyemografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

**Demografik ko'rsatkichlarni** shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-go-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
Sh. Musayeva  
65 223-83-37 (8070)

**Manzil:**

